# INKLYUZIV TALIMDA FLOOR TIME VA SENSOR INTEGRATSIYA METODIKALARINING SAMARADORLIGI

**Egamberdiyeva Nigora Azizovna**
Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi p.f.f.d; CHDPU, Chirchiq, O‘zbekiston
https://orcid.org/0009-0001-1670-7890
+998917771709 nigoraazizovna1991@gmail.com
**Panjiyeva Muxlisa**
Talabalar:muhlisapanjiyeva@gmail.com 880697880
**Jaxonova Umida**
umidajahonova03@gmail.com 93 145 57 45
**Jo‘ldiboyeva Gulshoda**
gulshodajoldibayeva474@gmail.com 887420506
**Tovoshova Hilola**
hazamatovna@gmail.com 947277664

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining pedagogik va psixologik samaradorligi tahlil qilinadi. Floor Time metodikasi orqali bolaning individual qiziqishlari asosida o‘zaro muloqot va rivojlanish jarayonini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari ochib beriladi. Sensor integratsiya yondashuvi esa bolaning sezgi tizimlarini uyg‘unlashtirish orqali uning idrok, diqqat va xulq-atvor jarayonlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta’lim, Floor Time, sensor integratsiya, alohida ta’lim ehtiyojlari, korreksion-pedagogik yondashuv, kommunikativ rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, emotsional rivojlanish.

**Аннотация:** В данной статье анализируется педагогическая и психологическая эффективность методик Floor Time и сенсорной интеграции в условиях инклюзивного образования. Методика Floor Time раскрывает возможности поддержки взаимодействия и развития ребёнка на основе его индивидуальных интересов. Подход сенсорной интеграции способствует улучшению процессов восприятия, внимания и поведения ребёнка посредством гармонизации сенсорных систем.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, Floor Time, сенсорная интеграция, особые образовательные потребности, коррекционно-педагогический подход, коммуникативное развитие, социальная адаптация, эмоциональное развитие.

**Abstract:** This article examines the pedagogical and psychological effectiveness of the Floor Time and sensory integration approaches in inclusive education settings. The Floor Time approach supports interaction and developmental processes based on the child's individual interests, fostering meaningful engagement. Sensory integration, in turn, enhances the organization of sensory inputs, contributing to improvements in perception, attention, and behavior.

**Keywords:** inclusive education, Floor Time, sensory integration, special educational needs, corrective pedagogy, communication development, social adaptation, emotional development.

**Kirish.**

Ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni rivojlantirish pedagogika sohasining muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning teng huquqli ishtirokini ta’minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish uchun zamonaviy korreksion-pedagogik metodika va yondashuvlardan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda.

Inklyuziv ta’lim amaliyotida bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali metod va texnologiyalarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kommunikativ, emotsional va ijtimoiy rivojlanishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalar bilan ishlashda innovatsion yondashuvlar talab etiladi. Shu jihatdan, Floor Time va sensor integratsiya metodikalari alohida e’tiborga loyiqdir. Floor Time yondashuvi bolaning qiziqishlari va ichki ehtiyojlariga tayangan holda interaktiv muloqotni tashkil etishga xizmat qilsa, sensor integratsiya metodikasi sezgi tizimlarini uyg‘unlashtirish orqali bolaning atrof-muhitni idrok etish va unga moslashish jarayonlarini takomillashtiradi. Mazkur sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar (jumladan, Stanley Greenspan tomonidan ishlab chiqilgan Floor Time konsepsiyasi hamda sensor integratsiya nazariyasining asoschisi A. Jean Ayres ishlari) ushbu metodikalarning rivojlanishida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, ushbu metodikalarning inklyuziv ta’lim sharoitida kompleks qo‘llanilishi va ularning samaradorligini tizimli o‘rganish masalasi hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – inklyuziv ta’lim jarayonida Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining pedagogik va psixologik samaradorligini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Maqola natijalari inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish, shuningdek, maxsus pedagoglar va amaliyotchi mutaxassislar faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Adabiyot tahlili va metodologiyasi**

Inklyuziv ta’lim sharoitida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarni qo‘llab-quvvatlashda innovatsion korreksion-pedagogik metodikalarning o‘rni muhim hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda Floor Time va sensor integratsiya metodikalari alohida e’tibor markazida turadi.

Floor Time yondashuvi Stanley Greenspan tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u bolaning rivojlanishini ijtimoiy-emotsional munosabatlar orqali qo‘llab-quvvatlashga asoslanadi. Ushbu modelda bola bilan interaktiv o‘yin, emotsional aloqa va individual qiziqishlar asosida rivojlanish muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Floor Time yondashuvi bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ayniqsa autizm spektridagi bolalarda ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi .

Sensor integratsiya nazariyasi esa A. Jean Ayres tomonidan asoslangan bo‘lib, u sezgi tizimlarining o‘zaro bog‘liqligiga tayanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, bolaning o‘rganishi va xulq-atvori sezgi axborotlarini qayta ishlash qobiliyatiga bevosita bog‘liqdir . So‘nggi ilmiy tadqiqotlarda sensor integratsiya metodikasi bolalarning sezgi qayta ishlash, motor va kognitiv faoliyatini yaxshilashda muayyan ijobiy natijalar berishi qayd etilgan .

Shuningdek, tizimli sharhlar natijalariga ko‘ra, Ayres sensor integratsiya terapiyasi ayrim holatlarda dalillarga asoslangan amaliyot sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, ayniqsa autizm spektridagi bolalarda samaradorligi aniqlangan . Biroq ayrim tadqiqotlarda metodikaning samaradorligi bo‘yicha qarama-qarshi natijalar ham mavjud bo‘lib, bu uning qo‘llanish sharoiti va metodologik yondashuvlarga bog‘liqligini ko‘rsatadi .

Zamonaviy ilmiy qarashlarda Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining integratsiyalashgan holda qo‘llanishi yanada samarali natijalar berishi ta’kidlanadi. Chunki emotsional rivojlanish va sensor jarayonlar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bolaning umumiy rivojlanishida kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi .

Mahalliy ilmiy-amaliy manbalarda, jumladan, maxsus pedagogika yo‘nalishidagi tadqiqotlarda inklyuziv ta’limda individual yondashuv, multisensor metodlar va korreksion-pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarurligi alohida qayd etiladi. Bu esa Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining milliy ta’lim tizimiga mosligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot inklyuziv ta’lim sharoitida Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, kompleks yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotning metodologik asosini inklyuziv ta’lim nazariyasi, korreksion-pedagogik faoliyat tamoyillari, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv hamda multisensor rivojlanish konsepsiyasi tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik va statistik metodlardan foydalanildi. Xususan, nazariy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish ishlari amalga oshirildi, empirik metodlar doirasida kuzatish, diagnostik baholash hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi, statistik metodlar yordamida esa olingan natijalar tahlil qilinib, umumlashtirildi.

Tajriba-sinov ishlari inklyuziv ta’lim muassasalarida, jumladan maxsus pedagogika yo‘nalishidagi amaliyot bazalarida tashkil etildi va unda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar ishtirok etdi. Tajriba jarayonida Floor Time metodikasi asosida bolalar bilan individual hamda kichik guruh shaklida o‘yinli interaktiv mashg‘ulotlar tashkil etildi. Shu bilan birga, sensor integratsiya yondashuvi asosida vestibulyar, taktil va proprioseptiv mashqlar tizimli ravishda qo‘llanildi. Mashg‘ulotlar davomida bolalarning rivojlanish dinamikasi, ya’ni kommunikativ, emotsional va kognitiv ko‘rsatkichlari muntazam monitoring qilinib borildi.

Baholash mezonlari sifatida ijtimoiy moslashuv darajasi, nutq va kommunikativ faollik, emotsional barqarorlik hamda sezgi integratsiyasi ko‘rsatkichlari tanlandi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida tajriba oldi va tajriba yakunidagi ko‘rsatkichlar o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. Natijada qo‘llanilgan metodologiya Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining inklyuziv ta’limdagi samaradorligini kompleks baholash imkonini berib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos vazifasini bajardi.

**Natijalar**

Inklyuziv ta’lim sharoitida Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining qo‘llanilishi alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning rivojlanishida ijobiy dinamikani yuzaga keltirganligini ko‘rsatdi.

Bolalarning kommunikativ faolligi, ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi hamda sezgi integratsiyasi darajalari dastlabki (boshlang‘ich) va yakuniy bosqichlarda baholandi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, Floor Time metodikasi asosida tashkil etilgan interaktiv mashg‘ulotlar bolalarda ijtimoiy aloqaga kirishish, muloqotni davom ettirish va emotsional javob qaytarish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Sensor integratsiya mashqlari orqali bolalarda sezgi tizimlari faoliyatining uyg‘unlashuvi, diqqatni jamlash va xulq-atvorni boshqarish ko‘rsatkichlari yaxshilandi. Vestibulyar va taktil stimulyatsiyaga asoslangan mashg‘ulotlar bolalarning fazoviy orientatsiyasi va umumiy motorikasini rivojlantirishda samarali bo‘ldi. Eksperimental guruhda o‘quvchilarning rivojlanish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan

yuqori darajada o‘sdi. Bu esa Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining kompleks qo‘llanilishi inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

| Ko‘rsatkichlar | Tajriba oldi (%) | Tajriba keyin (%) | O‘sish (+/-) |
|---|---|---|---|
| Kommunikativ faollik | 42 | 68 | +26 |
| Ijtimoiy moslashuv | 45 | 72 | +27 |
| Emotsional barqarorlik | 40 | 70 | +30 |
| Sezgi integratsiyasi | 38 | 66 | +28 |

1-jadval

Yuqorida keltirilgan jadvalda Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika kafedrasi qoshidagi InKorLab (Ilmiy tadqiqotlar markazi)da olib borilgan kuzatishlar natijalariga ko‘ra, Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi o‘quvchilarning rivojlanish ko‘rsatkichlariga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha ijobiy o‘sish kuzatilgan. Eng yuqori o‘sish emotsional barqarorlik (30%) va ijtimoiy moslashuv (27%) ko‘rsatkichlarida qayd etildi. Bu esa Floor Time metodikasining emotsional rivojlanishga, sensor integratsiya yondashuvining esa umumiy moslashuv jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatganini anglatadi. O‘tkazilgan ushbu kuzatishlar natijalari Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining kompleks qo‘llanilishi alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning rivojlanishida kompleks ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlashini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

**Muhokama**

Inklyuziv ta’lim sharoitida Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining qo‘llanilishi alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Olingan natijalar mavjud ilmiy qarashlar bilan uyg‘un bo‘lib, ushbu metodikalarning ijtimoiy-emotsional va sensor rivojlanishdagi ahamiyatini yana bir bor asoslab berdi. Xususan, Floor Time metodikasining qo‘llanilishi bolalarda muloqotga kirishish, emotsional javob qaytarish hamda ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Bu natijalar Stanley Greenspan tomonidan ilgari surilgan yondashuvda bola rivojlanishining asosiy omili sifatida emotsional o‘zaro ta’sir muhim ekanligi haqidagi nazariy qarashlar bilan mos keladi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida kuzatilgan o‘zgarishlar shuni ko‘rsatdiki, bola bilan individual yondashuv asosida olib borilgan interaktiv mashg‘ulotlar uning ichki motivatsiyasini oshiradi va o‘quv faoliyatiga jalb etilish darajasini kuchaytiradi. Sensor integratsiya metodikasining qo‘llanilishi esa bolalarning sezgi tizimlarini uyg‘unlashtirish orqali diqqatni jamlash, xulq-atvorni boshqarish va fazoviy orientatsiya kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Bu jihatlar A. Jean Ayres tomonidan ishlab chiqilgan sensor integratsiya nazariyasining amaliy jihatdan samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ayniqsa vestibulyar va taktil stimulyatsiyaga asoslangan mashg‘ulotlar bolalarning umumiy psixofiziologik holatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.

Aniqlangan muhim jihatlardan biri – Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi alohida yuqori samaradorlikni ta’minlashidir[1]. Chunki

[1] Sensor integratsiya. Darslik. X.Sh.Yunusova –T .: “Dimal” nashriyoti, 2026-y. -142 b.

emotsional rivojlanish va sensor jarayonlar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, kompleks yondashuv bolalarning rivojlanishida yanada barqaror natijalarga olib keladi. Bu esa inklyuziv ta’lim jarayonida yagona metod bilan cheklanib qolmasdan, turli yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq ayrim cheklovlar ham kuzatildi. Jumladan, metodikalarni qo‘llashda mutaxassislarning malakasi, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi hamda ota-onalar bilan hamkorlik darajasi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Bu esa ushbu metodikalarning samaradorligi faqatgina ularni qo‘llash bilan emas, balki tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarga ham bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining inklyuziv ta’lim tizimida qo‘llanilishi ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan samarali ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga integratsiya qilish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

**Xulosa**

Inklyuziv ta’lim sharoitida Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining qo‘llanilishi alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning rivojlanishida muhim ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirishini ko‘rsatdi. Xususan, ushbu metodikalar bolalarning kommunikativ faolligi, ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi hamda sezgi integratsiyasi ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi. Floor Time metodikasi bolalarning emotsional rivojlanishi va ijtimoiy muloqotga kirishish jarayonini faollashtirsa, sensor integratsiya yondashuvi ularning sezgi tizimlarini uyg‘unlashtirish orqali kognitiv va xulq-atvor ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu metodikalarning integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi esa yanada yuqori samaradorlikni ta’minlab, kompleks rivojlanish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi.

Ushbu metodikalarni samarali qo‘llash uchun maxsus pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik ta’minoti hamda ota-onalar bilan hamkorlik muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa inklyuziv ta’lim tizimida metodik yondashuvlar bilan bir qatorda tashkiliy-pedagogik sharoitlarni ham takomillashtirish zarurligini anglatadi. Floor Time va sensor integratsiya metodikalarining inklyuziv ta’lim tizimida qo‘llanilishi nafaqat alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, balki ta’lim jarayonining sifatini oshirishda muhim innovatsion yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom.
2. Sensor integratsiya. Darslik. X.Sh.Yunusova –T .: “Dimal” nashriyoti, 2026-y. -142 b.
3. Jean Ayres. (1979). Sensory Integration and the Child. Los Angeles: Western Psychological Services.
4. V.A. Slastenin. (2002). Pedagogika: innovatsion faoliyat asoslari. Moskva: Akademiya.
5. S.D. Polyakov. (2005). Pedagogik innovatsiyalar asoslari. Moskva.
6. Y.A. Ivanova. (2010). Pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlar. Sankt-Peterburg.
7. Wieder, S., & Greenspan, S.I. (2003). Climbing the Symbolic Ladder in the DIR Model. Journal of Developmental and Learning Disorders.